

AHOLI EHTIYOJLARI QONDIRILADI



Senator soʻrovi

Bugungi kunda parlament nazorati shakllaridan boʻlgan senator soʻrovlari institutidan samarali foydalanilmoqda.

Kecha Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi raisi Orzigul Qozixonova Oʻzbekiston Respublikasi transport vaziri Ilhom Mahkamovga senator soʻrovi yubordi.

Unda qayd etilganidek, soʻnggi yillarda poytaxt va viloyat markazlariga minglab zamonaviy elektrobust hamda avtobuslar olib kelinib, jamoat transporti qatnovlari sezilarli darajada oshirilgan. Shunday boʻlsa-da, hududlarda olib borilgan oʻrganishlar, sayyor qabul va fuqarolar murojaatlari ayrim hududlarda transport xizmatlari bilan qamrov yetarli emasligini koʻrsatmoqda.

Xususan, Senatning mazkur qoʻmitasiga Toshkent viloyatining Toshkent tumani tarkibiga kiruvchi Zargar, Majnuntol, Xiyobon, Sohikkoor hamda Nurhayot mahallalarida yashovchi fuqarolardan avtobus yoʻnalishlarini koʻpaytirish yuzasidan jamoaviy murojaatlar kelib tushgan.

Mazkur mahallalarda 18 mingdan ortiq aholi istiqomat qilishi, ularning katta qismi har kuni ish, taʼlim, tibbiy xizmat va boshqa ijtimoiy ehtiyoqlar sababli Toshkent shahriga qatnashi taʼkidlangan.

Biroq ushbu hududlarni poytaxt bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻlovchi muntazam

Davlat va jamiyat hayotiga doir masalalarni koʻrib chiqish va hal qilishda parlamentning ishtiroki, nazorat mexanizmlari qanchalik takomillashgan boʻlsa, ijro hokimiyati organlari faoliyati ham shunchalik samarali tashkil etiladi.

avtobus yoʻnalishi mavjud emasligi sababli fuqarolar bir necha transport almashtirishga yoki xususiy transport xizmatlaridan foydalanishga majbur boʻlayotgani qayd etilgan.

Senator soʻrovida bu holat ortiqcha vaqt va mablagʻ sarfiga sabab boʻlib, ayniqsa, yoshlar, xotin-qizlar, keksalar hamda nogironligi boʻlgan shaxslar uchun qator noqulayliklarni yuzaga keltirayotgani taʼkidlangan.

Shuningdek, 2025-yil 9-iyul kuni davlat rahbari boshchiligidagi oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida poytaxt jamoat transportini yagona aglomeratsiya tizimiga oʻtkazish hamda Toshkent viloyatining tutash hududlarini qamrab olish boʻyicha topshiriqlar berilgani eslatib oʻtilgan.

Shundan kelib chiqib, senator soʻrovida poytaxt jamoat transportini yagona aglomeratsiya tizimiga oʻtkazish borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan asoslantirilgan maʼlumot taqdim etish soʻralgan.

Bundan tashqari, senator Toshkent viloyatining Toshkent shahriga tutash hududlaridan aholining qatnov ehtiyojlari boʻyicha oʻtkazilgan tahlillar hamda Toshkent shahri va viloyatning tutash hududlari oʻrtasidagi qatnovlarni yaxshilash boʻyicha ixtisbolli rejalari, shuningdek, Zargar, Majnuntol, Xiyobon, Sohikkoor va Nurhayot mahallalarini Toshkent

shahri bilan bogʻlovchi yangi avtobus yoʻnalishini tashkil etish yoki mavjud yoʻnalishlarni uzaytirish imkoniyatlari haqida asoslantirilgan maʼlumotlar taqdim qilishni ham soʻragan.

Shuningdek, Senatning Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasida doimiy asosda ishlovchi senator Gulnora Maʼrufova ham Toshkent shahri hokimligiga Yangiheyot tumanidagi Jaloir mahallasini ichimlik suvi bilan taʼminlash masalasi yuzasidan senator soʻrovi yubordi.

Soʻrovda bugungi kunda poytaxt hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash hamda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar belgilangani qayd etilgan. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-apreldagi 177-sonli qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlarga muvofiq Yangiheyot tumani Jaloir mahallasida qiymati 8,7 mlrd. soʻmlik, uzunligi 41,4 kilometr boʻlgan yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish nazarda tutilgan.

Ammo ushbu ishlar bugungi kunga qadar bajarilmagani oqibatida aholisi 2 mingdan ortiq boʻlgan, 300 dan ziyod xonadonlardan iborat Jaloir mahallasida ichimlik suvi taʼminoti bilan bogʻliq muammolar saqlanib qolmoqda hamda bu aholining asosli eʼtirozlariga sabab boʻlayotgani qayd etilgan.

Shu munosabat bilan senator Toshkent shahar hokimligidan buning sabablari, mavjud muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf qilish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusida rejalashtirilgan chora-tadbirlar yuzasidan asoslantirilgan maʼlumot taqdim etishni soʻragan.

“Xalq soʻzi”.

KUN TARTIBIDA – IQLIM OʻZGARISHI VA BARQAROR TARAQQIYOT

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi raisi Anvar Tuychiyev Oʻzbekiston delegatsiyasi tarkibida Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahrida Yevroosiyo mamlakatlari parlamentlari uchun “Parlament harakatlari orqali iqlim oʻzgarishi va barqaror taraqqiyot muammolarini hal etish” mavzuidagi xalqaro seminarada ishtirok etdi.

Seminar

Tadbirda Tojikiston, Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Ozarbayjon, Belarus, Rossiya va Turkiya parlamentlari aʼzolari, xalqaro ekspertlar, olimlar hamda ekologik tashkilotlarning vakillari qatnashdi.

Seminar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga

oshirish doirasida parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash, iqlim oʻzgarishi bilan bogʻliq global muammolar yuzasidan oʻzaro tajriba almashish va amaliy muloqotni rivojlantirishga qaratildi.

Senator iqlim oʻzgarishi sharoitida ekologik barqarorlikni taʼminlash, atrof-muhit muhofazasi hamda parlament nazoratini kuchaytirish masalalari yuzasidan maʼruza qildi.

ZUKKO O‘QUVCHILAR TASHABBUSLARI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi aʼzosi Malika Qodirxonova Toshkent shahridagi Prezident maktabida oʻquvchilar uchun yaratilgan zamonaviy sharoitlar, taʼlim sifati hamda yoshlarning bilim va salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan imkoniyatlar bilan yaqindan tanishdi.

Muloqot

Bu yerda oʻquvchilar “STEAM” yoʻnalishi asosida tahsil oladi. Dars mashgʻulotlari xalqaro toifadagi pedagoglar tomonidan olib boriladi. Har bir sinfda 12 nafardan oʻquvchi taʼlim olishi esa darslarning samaradorligini oshirish va har bir oʻquvchi bilan individual ishlash imkonini bermoqda.

Senator maktabdagi taʼlim

jarayoni bilan bir qatorda oʻquvchilarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning ijodiy va sportga oid qiziqishlarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha yaratilgan sharoitlarni ham koʻzdan kechirdi. Jumladan, maktabda suzish, futbol, tennis kabi sport turlari, hunarmandchilik va musiqa toʻgaraklari faoliyat yuritmoqda.

Maktab sinfonalari har bir fan yoʻnalishiga mos zamonaviy jihozlar bilan taʼminlangan. Oʻquvchilar uchun qoʻshimcha mashgʻulotlarni ochiq havoda oʻtkazish imkoniyati ham yaratilgan. Bundan tashqari, oʻquvchilar tashabbusi bilan radio faoliyati, “PROJECTOR” jurnali tashkil etilgan hamda yaqinda maktab hayotiga bagʻishlangan yangi podkast ishi boshlagan.

Tashrif davomida nogironligi boʻlgan oʻquvchilar uchun yaratilgan qulay sharoitlar va inklyuziv taʼlim imkoniyatlariga ham alohida eʼtibor qaratildi.

Shundan soʻng “Senator

va yoshlar” ochiq muloqoti boʻlib oʻtdi. Muloqot davomida oʻquvchilarga parlamentning yuqori palatasi faoliyati, senatorlarning qonun ijodkorligi va hududlar bilan ishlash jarayonlari hamda Yoshlar parlamentining vazifalari haqida batafsil maʼlumot berildi.

Oʻquvchilar tomonidan psixologik va kasbga yoʻnaltirilgan seminar-treninglarni koʻpaytirish, yoshlar oʻrtasida ekologik madaniyatni oshirish, ijtimoiy loyihalarni qoʻllab-quvvatlash yuzasidan qator taklif hamda tashabbuslar ilgari surildi.

“Xalq soʻzi”.

INSON MANFAATLARI VA XALQIMIZ HAYOTINING MUSTAHKAM ASOSI



Uyushgan jinoyatchilik va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik kuchaytirilmoqda

Majlisda dastlab uyushgan jinoyatchilik va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda mamlakatimizda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va mahallalarda jinoyatchilikni barvaqt oldini olish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Tahlillar jinoyat sodir etish maqsadida jinoyi uyushmalarni tashkil qilish va moliyalashtirish holatlari jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotganini koʻrsatmoqda. Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda bunday uyushmalarni moliyalashtirganlik uchun alohida javobgarlik belgilanmagani ushbu sohadagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan Jinoyat kodeksiga jinoyi uyushma faoliyatini moliyalashtirganlik uchun alohida javobgarlik kiritish, bunday shaxslarga nisbatan jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qoʻllamaslik nazarda tutilmoqda.

Amaldagi qonunchilikda jinoyi uyushma tashkil etish yoki unga rahbarlik qilish uchun javobgarlik mavjud boʻlsa-da, mansab vakolatlarini suiisteʼmol qilgan holda jinoyi uyushmalarga homiylik qilganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan edi. Qonun loyihasi bilan mansab vakolatlarini suiisteʼmol qilgan holda jinoyi uyushmalarga homiylik qilganlik uchun ham javobgarlik belgilash taklif etilmoqda.

Amalda uyushgan guruhlar tomonidan sodir qilingan bezorilik uchun koʻp hollarda yengil jazo tayinlanmoqda. Bu esa jazosizlik muhiti shakllanishiga olib kelayotgani taʼkidlandi. Shu sababli qonun loyihasida bezorilik jinoyati uchun jazo choralari ham ogʻirlashtirilmoqda.

Loyihada jangovar sport turlari sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga ham alohida eʼtibor qaratilgan. Jangovar sport turlari boʻyicha musobaqalarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki oʻtkazish jinoyi javobgarlikka sabab boʻlishi, unda bevosita ishtirok etganlar esa maʼmuriy javobgarlikka tortilishi belgilanmoqda.

Jumanazar OTAJONOV, Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasi aʼzosi:

– Qonun loyihasi mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni taʼminlash, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga hamda jinoyatlarining barvaqt oldini olishga qaratilgan. Ayniqsa, jinoyi

uyushmalarni moliyalashtirish, ularga mansab vakolatlaridan foydalangan holda homiylik qilish kabi holatlar uchun alohida javobgarlik belgilanayotgani muhim ahamiyatga ega. Ushbu hujjat jinoyatchilikka qarshi kurashishda taʼsirchan huquqiy mexanizmlarni yaratish, jamoat tartibini mustahkamlash va fuqarolarning xavfsizligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Mahsulotlarning umumiy xavfsizligiga oid tartib-taomillar mustahkamlanadi

Deputatlar “Mahsulotlarning umumiy xavfsizligi toʻgʻrisida”gi qonun loyihasini ikkinchi oʻqishda moddama-modda muhokama qildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan nooziq-ovqat mahsulotlari uchun umumiy xavfsizlik qoidalari belgilanmoqda. Bozorda sotilayotgan har bir mahsulot xavfsiz, ishonchli, inson salomatligiga zararsiz boʻlishi shartligi nazarda tutilyapti. Jumladan, yangi tovarlar, ishlatilgan yoki taʼmirlangan mahsulotlar, internet orqali sotilayotgan tovarlarni ham yetkazib beruvchilari ularning xavfsizligini kafolatlagan holda sotuvga chiqarishi lozimligi koʻrsatib oʻtilmoqda. Bu esa sifatsiz mahsulotlarning sotilishiga barham beradi.

Qonun loyihasiga koʻra, mahsulotni yetkazib berish zanjirida ishtirok etuvchi barcha tadbirkorlik subyektlari, yaʼni ishlab chiqaruvchi, import qiluvchi, sotuvchi, elektron tijorat operatorlari oʻz faoliyati doirasida mahsulot xavfsizligi uchun javobgar boʻlishi belgilab qoʻyilmoqda. Qoidalari buzilsa mahsulot sotuvdan chiqariladi, jarima qoʻllaniladi. Bu esa bozorda adolati raqobatni taʼminlash hamda aholi salomatligini saqlashga xizmat qiladi.

Ravshan MAMUTOV, Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi raisi:

– Qonun loyihasini ikkinchi oʻqishda t a y y o r l a s h d a u n d a g i n o r m a l a r n i, a v v a l o, i s t e m o l c h i m a n f a a t l a r i n i k o z l a b m a r o m i g a y e t k a z i s h, i n t e r n e t o r q a l i a m a l g a o s h i r i l a d i g a n s a v d o g a h a m a n i q t a l a b l a r q o y i s h g a a l o h i d a e t i b o r q a r a t i l d i. D e p u t a t l a r t a k l i f l a r i d a n k e l i b c h i q i b, l o y i h a d a g i n o r m a l t a k o m i l l a s h t i r i l d i. M a z k u r q o n u n l o y i h a s i n i n g q a b u l q i l i n i s h i s i f a t s i z m a h s u l o t l a r n i n g k a m a y i s h i g a, x a v f l i t o v a r l a r n i n g b o z o r g a c h i q i s h i n i n g o l d i n i o l i s h g a, i s t e m o l c h i l a r n i n g h u q u q l a r i h i m o y a q i l i n i s h i g a, x a r i d o r l a r d a i s h o n c h n i n g o r t i s h i g a x i z m a t q i l a d i. Q o n u n l o y i h a s i u c h i n c h i o q i s h d a q a b u l q i l i n d i v a S e n a t g a y u b o r i l d i.

Bozor nazoratini amalga oshirishning yangicha huquqiy mexanizmlari

Majlisda “Bozor nazorati toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda

moddama-modda koʻrib chiqildi.

Ushbu hujjat mahsulot xavfsizligini taʼminlashga oid qonunchilik hujjatlari va texnik reglamentlar bilan belgilangan talablarga nomuvofiq hamda sifatsiz mahsulot ishlab chiqargan, import qilgan yoki tarqatgan shaxslarga nisbatan aniq taʼsir choralarni belgilash hamda isteʼmolchilarning huquq va manfaatlarini yanada samarali himoyalashga qaratilgan.

Qonun loyihasida bozor nazorati ishtirokchilari, jumladan, bozor nazorati organlari va ularning mansabdor shaxslarining bozor nazorati faoliyatini amalga oshirishdagi huquqlari va majburiyatlari hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan muomalaga kiritilgan mahsulotlarga nisbatan oʻtkaziladigan bozor nazorati jarayonidagi tadbirkorlarning huquqlari belgilanmoqda.

Loyihada bozor nazorati sohasida jamoat manfaatlariga yetkazilishi mumkin



boʻlgan xatarlarni oʻz vaqtida aniqlash va ushbu sohada qonun buzilishi holatlari kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan choralar, huquqiy mexanizmlar belgilanmoqda.

Muhokamada deputatlar bozor ishtirokchilariga nisbatan taʼsir choralarini qoʻllashda mutanosiblik prinsipiga amal qilish hamda moliyaviy jarimalar tarzidagi sanksiyalarni qoʻllashda qonunchilikda belgilangan ragʻbatlantirish choralarini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar bildirildi.

Shu bilan birga, bozor nazorati organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning oʻzaro hamkorligini taʼminlash, shuningdek, xavf tugʻdiruvchi va nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni ichki bozorda muomalaga kiritilishining oldini olishga qaratilgan bozor nazorati axborot almashinuvida davlat organlarining tezkor axborot almashuv tizimini joriy etishga qaratilgan huquqiy normalar yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini bildiradi.

Munozaralarda hunarmandchilik mahsulotlarini bozor nazorati doirasiga kiritish masalasi qizgʻin bahslarga sabab boʻldi. “Milliy tiklanish” DP fraksiyasi aʼzolari qonun loyihasining dastlabki tahririda hunarmandchilik mahsulotlari ushbu qonun loyihasining nazorat doirasida boʻlmaganini, biroq ikkinchi oʻqishga tayyorlangan tahrirda nazorat doirasiga kiritilgani boʻyicha oʻz eʼtirozlarini bildirib, ushbu norma hunarmandchilik sohasi rivojiga salbiy taʼsir qilishini qayd etdi.

Bu boʻyicha qonun loyihasiga masʼul qoʻmita vakillari amaliyotda ayrim

holatlarda hunarmandchilik mahsulotlari inson salomatligiga xavf tugʻdirishi holatlari ham uchrayotganligidan kelib chiqib, ushbu oʻzgartirish kiritilganini maʼlum qildi.

Majlisda qayd etilganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi bozor nazoratini amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, mahsulotlar xavfsizligini taʼminlash, inson hayoti va sogʻligʻi, jamoat manfaatlarini himoyalashga xizmat qiladi.

Muhokamalardan soʻng qonun loyihasi qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Sud qarorlarining oʻz vaqtida va toʻliq ijro etilishi taʼminlanadi

Deputatlar tomonidan koʻrib chiqilgan navbatdagi hujjat – “Oʻzbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi boʻldi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sud qarorlarining samarali ijrosini taʼminlash, shisbilarmonlik muhitini yaxshilash boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikka binoan birinchi instansiya sudining qarori ustidan shikoyat berilganda uning ijrosini yuqori instansiya sudi toʻxtatib turish vakolatiga ega. Xususan, Iqtisodiy protsessual kodeksining 271 va 294, 323-moddalari talablariga koʻra apellyatsiya, kassatsiya va tafish instansiyasi sudi quyi instansiya sudi qarori ustidan shikoyat berilganda uning ijrosini tegishli iltimosnoma asosida mazkur instansiyada ish yuritish tamomlanguniga qadar toʻxtatib turishi mumkin.

Biroq ushbu kodeksda sud qarori ijrosini toʻxtatib turish haqidagi iltimosnomani rad etish uchun aniq asoslar belgilanmagani sababli bunday iltimosnoma taqdim etilganda, yuqori instansiya sudi aksariyat hollarda quyi instansiya sudi qarorining ijrosini toʻxtatishga toʻgʻri kelmogʻda.

Mazkur holat sud hujjatining majburiy kuchiga ishonib faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining sud qarori asosida olishlari lozim boʻlgan pul mablagʻlarining undirilishi jarayonlarining kechikishiga sabab boʻlmoqda.

Shundan kelib chiqib, mazkur qonun loyihasi bilan Iqtisodiy protsessual kodeksining 271, 294 va 323-moddalariga oʻzgartirish kiritish taklif etilayotir. Unga koʻra, yuqori instansiya sudlarida koʻrib chiqilayotgan ishlar boʻyicha sud hujjatlari ijrosini toʻxtatib turish faqatgina arizachi tomonidan bunday chora koʻrilmasa, sud hujjatining qaytarma ijrosi qiyinlashishi yoki imkonsiz boʻlib qolishi asoslab berilgan hollarda qoʻllanilishi belgilanmoqda.

Shuningdek, bir qator savollar koʻtarildi.

Saydullo AZIMOV, OʻzLiDeP fraksiyasi aʼzosi:

– Qonun loyihasida kassatsiya instansiyasi sudining birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining ijrosini toʻxtatib turishga oid normasini oʻzgartirish taklif etilmoqda. Yaʼni mazkur norma dispozitiv tusga oʻtkazilib, sud ijroni toʻxtatib turishga “haqli” ekanligi belgilanmoqda. Shu bilan birga, iltimosnoma beruvchi shaxs ijroni toʻxtatmaslik qaytarma ijroni qiyinlashtirishi yoki umuman imkonsiz qilib qoʻyishini asoslab berishi lozimligi nazarda tutilmoqda. Bu esa ayrim savollarni keltirib chiqaradi.

Birinchidan, amaldagi mexanizm taraflar oʻrtasidagi protsessual muvozanatni taʼminlab kelayotgan edi. Chunki kassatsiya instansiyasida ish qayta koʻrib chiqilib, birinchi instansiya sudi qarori bekor qilinishi ehtimoli har doim mavjud. Endi esa sud ijroni toʻxtatmaslik mumkin boʻlgan sharoitda, birinchi instansiya qarori ijro etilib, mablagʻlar yoki mol-mulk bir tarfaga oʻtkazib boʻlinganidan keyin kassatsiya instansiyasi ushbu qarorni bekor qilishi mumkin.

Bunday vaziyatda, ayniqsa, mablagʻlar sarflab yuborilgan, aktivlar boshqa shaxslarga oʻtkazilgan yoki qaytarish amalda murakkab boʻlgan holatlarda, kassatsiya shikoyati bergan tarafning huquq va qonuniy manfaatlari jiddiy buzilishi xavfi yuzaga kelmaydimi?

Ikkinchidan, qonun loyihasida “qaytarma ijroni qiyinlashtirishi yoki imkonsiz qilib qoʻyishi mumkinligi”ni baholashning aniq huquqiy mezonlari belgilanmagan. Xoʻsh, sudlar mazkur holatni baholashda qanday aniq mezon va standartlarga tayanadi?

Qonun loyihasi tashabbuskorlari bu boʻyicha atroflicha tushuntirish berib oʻtishdi.

Savol-javoblardan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi yanada oshadi

Majlisda bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilgan – korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat boshqaruvida ochiqchilik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur qonun loyihasi ana shu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida ishlab chiqilgan.

Qonun loyihasi bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeks, “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi, “Davlat xaridlari toʻgʻrisida”gi hamda “Oʻzbekiston Respublikasining Hisob palatasi toʻgʻrisida”gi qonunlarga bir qator muhim qoʻshimcha va oʻzgartirishlar

kiritish nazarda tutilmoqda.

Xususan, komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining vakolatlari, huquq va majburiyatlari belgilanmoqda. Davlat organi va tashkiloti tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha ichki siyosatni amalga oshiradi hamda uning ushbu sohadaqi faoliyatini muvofiqlashtiradi, davlat organi va tashkiloti tizimida qonunga rioya etish, unga nisbatan hurmat ruhini mustahkamlash, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat muhitini yaratish va bu borada aholining ijobiy fikrini shakllantirish choralarni koʻradi.

Zarurat tugʻilganda, komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari vakolatini amalga oshirish doirasida tegishli hujjat hamda materiallar bilan tanishish maqsadida davlat organi, tashkilotining obyektlariga toʻsqinliksiz kirish, davlat organi va tashkiloti tizimida qonunbuzilish holatlarining oldini olish boʻyicha koʻrib chiqilishi majburiy boʻlgan koʻrsatma va ularning bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritishi koʻzda tutilmoqda.

Qonun loyihasida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi zimmasiga har bir davlat organi va tashkilotlari, hududlar va sohalar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini shakllantirish vazifasi yuklatilmoqda. Shuningdek, davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etishi, manfaatlar toʻqnashuvining oldini olish, uni bartaraf qilish, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqchilgini taʼminlash choralarini koʻrishi taklif etilmoqda.

Loyihaga koʻra, Hisob palatasi raisining oʻrinbosarlari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan tartibda tayinlanishi belgilanmoqda. Davlat xaridlarida narx tafovutining belgilangan chegarasini buzgan mansabdor shaxslarga maʼmuriy jarima qoʻllash tartibi nazarda tutilyapti. Davlat xaridlarida tovar va xizmatlar narxining oʻrtacha bozor narxidan asossiz oshirilishiga qarshi taʼsirchan huquqiy mexanizmlar joriy etilayotir.

Davron ARIPOV, Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qoʻmitasi aʼzosi:

– Qonun loyihasida korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha milliy va hududiy kengashlarning huquqiy maqomi hamda vakolatlari mustahkamlanmoqda. Ushbu hujjat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish, davlat mablagʻlaridan samarali foydalanishni taʼminlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokamalardan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi oʻqishda qabul qilindi.

<

Munosabat

Mehr-muruvvat va bagʻrikenglik ifodasi

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish, jamiyatda mehr-oqibat, saxovat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Bu tamoyillar, ayniqsa, xalqimizga xos ezgu fazilatlarini mujassam etgan muborak Qurbon hayiti kunlarida yanada yorqin namoyon boʻladi.

Mazkur bayram qadimdan yurtimizda oʻzgacha, xalqimizga xos mehr-muruvvat, bagʻrikenglik va saxovat ifodasi boʻlib kelgan. Ramazon va Qurbon hayitining keng miqyosda nishonlanishi va dam olish kuni deb eʼlon qilinishi hamda har yili minglab yurtdoshlarimizning muborak Haj va Umra ziyoratlariga borib kelib turganliklari muqaddas dinimizga boʻlgan chuqur hurmat va eʼtibor natijasidir.

Bugungi kunda yurtimizda 16 xil din va konfessiyaga mansub 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Olib borilayotgan oqilona milliy siyosat tufayli turli millat va elatlar oʻrtasida oʻzaro hurmat, doʻstlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarga shakllangan. Eng asosiysi, tenglik huquqi jihatdan kafolatlangan. Muqaddas bayramlarimiz ana shu turli millat va elat vakillari orasida ham shodu xurramlik bilan nishonlanadi.

Bu yili Qurbon hayitini yurtimizda oʻzgacha fayz va shukuh bilan nishonlash boʻyicha Prezidentimiz qarori qabul qilindi va u asosida bir qancha xayru saxovat, muruvvat tadbirlarini amalga oshirish ham rejalashtirildi.

Jumladan, ogʻir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan 10 ming nafar bolada jarrohlik amaliyoti oʻtkazish, 2,3 ming nafar onkologik, gematologik va onkogematologik tashxisi qoʻyilgan bemorlarni tibbiy tekshiruvdan oʻtkazish, davolash va jarrohlik amaliyotlari, shuningdek, kamida 350 nafar bemorlarda jigar va buyrak transplantatsiyasi amaliyotlarini oʻtkazish xarajatlarini qoplash koʻzda tutilgan. Albatta, ushbu amallarning oʻzi katta gap. Chunki tanasini chirmab olgan dard bilan kurashayotgan, uni yengishga birda mablagʻ topib birda qoʻli kaltalik qilayotgan va dardiga qayerdan darmon izlashni bilmay yurgan



insonlar uchun bu juda katta koʻmakdir. Q a r o r d a keltirilishicha bundan tashqari ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qoʻllab-quvvatlashga ham alohida eʼtibor qaratiladi. 8 ming nafardan ziyod yetim va ota-onalar qaramogʻidagi mahrum boʻlgan bolalar hamda Vatan sarhadlarini himoya qilish yoʻlida qurbon boʻlgan ota-onalar farzandlarining omonat hisobvaraqlariga 200 AQSH dollari miqdorida pul mablagʻlari oʻtkazib beriladi.

Yurtimizda har yili muqaddas bayramlarimiz arafasida amalga oshiriladigan bunday tadbirlar mamlakatimizda hukm surayotgan tinch-totuvlik, ahil-inoqlikning belgisi. Darhaqiqat, tinchlik, osoyishtalik va halovatlardan azizroq neʼmat yoʻq bu dunyoda. Notinch yurtda toʻyyu tomosha, xursandchilik, oʻyin-kulgi bayramlar tatimaydi. U halovatni olib ketadi, insonlar orasidan mehr-oqibatlari aritadi, ulugʻ, ezgu maqsadlar, xayrli rejalar, istiqbolli gʻoya va bunyodkorlik ishlari butunlay xayoldan faromush qiladi, yurtdan xayr-barakani keltkazadi.

Aytish mumkinki, turli millat va elat vakillaridan iborat yurtdoshlarimizning barchasi muborak ayyom nafasi barq urib turgan mana shu kunlarda buni qalban, dildan his qilishi, hushyorlik va ogohlikni qoʻldan bermay, osuda va farovon hayotimizning har lahzasiga shukrona keltirishi zarur. Ana shundaygina bayramlarimiz bayramlarimizga ulashadi, shodiyonalarimiz oʻzimizga tatiydi.

Aksavli TUMISHOVA,
Oliy Majlis Senating Yashlar,
xotin-qizlar, madaniyat va sport
masalalari qoʻmitasi aʼzosi.

MILLIY UYGʻONISH FALSAFASI

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlatimiz rahbari tashabbusi asosida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson qadrini ulugʻlash, milliy oʻzlikni anglash hamda tarixiy xotirani tiklash gʻoyasi bilan uygʻun tarzda kechmoqda.

Aks sado

Shu maʼnoda, siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning “Millat shavkati” maqolasini oʻqir ekanis, unda Samarqand orqali butun Yangi Oʻzbekistonning maʼnaviy qiyofasi, xalqimiz tafakkurida kechayotgan ulkan oʻzgarishlar haqida soʻz borayotganini anglaysiz. Muallif Samarqand timsolida millatning ichki qudrati, davlatchilik tafakkuri, bunyodkorlik anʼanalari hamda maʼnaviy yuksalishini juda taʼsirchan tarzda, aniq misollar bilan ochib bergan.

Samarqand azaldan millatning or-nomusi, maʼnaviy qudrati va ilm-maʼrifatga intilishini namoyon etuvchi muqaddas makon, buyuk tarix hamda sivilizatsiya markazi boʻlib kelgan. Prezidentimiz rahbarligida bu shahar yanada yuksak qiyofa kasb etdi. Bugun Samarqand nafaqat Oʻzbekistonning, balki butun Markaziy Osiyoning siyosiy, madaniy va diplomatik markazlaridan biri sifatida dunyo eʼtirofida turibdi.

Viloyatda yuz bergan tub oʻzgarishlar zamirida esa, avvalo, inson dardini his etadigan, xalq bilan yashaydigan boshqaruv falsafasi mujassam, desak, ayni haqiqat. “Millat shavkati” maqolasida ham aynan shu jihatlariga alohida urgʻu berilgan. Rahbarning xalq ichida yurishi, odamlar muammosini kabinetida emas, joyiga chiqib oʻrganishi va ularga amaliy yechim topishi mamlakatimiz taraqqiyotining muhim tamoyiliga aylandi.

Katta ibrat maktabi

Taʼkidlash joizki, davlatimiz rahbari oʻsha davrlarda Samarqandga rahbarlik qilgan yillaridayoq mahallalarga, qishloqlarga chiqib, odamlar bilan bevosita muloqot qilish, muammolarni joyida hal etish amaliyotini yoʻlga qoʻygan edi. Bu oddiy boshqaruv uslubi emas, aksincha, xalqparvar davlatchilik maktabi ham edi.

Eʼtiborlisi, Prezident lavozimiga kirishganidan soʻng bu tamoyil oʻzgarmadi, aksincha, yanada kuchaydi. Davlatimiz rahbari bugun ham tinmasdan hududlarga tashrif buyurib, u yerdagi ahvolni shaxsan oʻrganib kelmokda. Bu esa butun rahbarlar korpusi uchun katta ibrat maktabi boʻldi. Hozirogi kunda vazirlar, hokimlar, soha rahbarlari ham joylarga chiqib ishlash, muammolarni aholi bilan yuzma-yuz muloqot orqali hal etishga harakat qilishyapti.

Bugun oliy taʼlim tizimi, ilm-fan sohasida



ham ana shu ochiq muloqot va joylarga chiqib ishlash tamoyili tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Universitetlar, texnikumlar, ilmiy-tadqiqot institutlari hamda innovatsion markazlarda boʻlib, talabalar, professor-oʻqituvchilar va yosh olimlar bilan bevosita muloqot qilish sohadagi haqiqiy ehtiyoj va muammolarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Chunki taʼlim tizimini kabinetda oʻtirib rivojlantirib boʻlmaydi. Joylardagi muhiti his qilish, ustozlar va yoshlarning fikr-mulohazalarini tinglash, ularning tashabbus va takliflariga tayanish orqali koʻplab masalalarga samarali yechim topilmoqda. Ayniqsa, taʼlim, ilm-fan va innovatsiya sohasida amaliy natijaga erishish uchun odamlar bilan doimiy muloqot qilish muhim ahamiyatga ega.

Vatan ravnaqiga daxldorlik

Maqolada yana bir dolzarb fikr ilgari surilganki, bu ilgari muayyan hudud vakillari faqat shu hudud doirasida faoliyat yuritishi haqidagi qarashlar jamiyat ongida maʼlum darajada mavjud edi. Bugun Yangi Oʻzbekistonda bugungi davlat siyosati mutlaqo boshqacha mazmun kasb etmoqda. Insonning qayerdan ekani emas, uning bilimi, salohiyati, Vatanga sadoqati muhim mezonga aylanmoqda.

Qoraqalpogʻiston zaminida tugʻilib oʻsgan inson sifatida aytishim mumkinki, mamlakatimizning har bir hududida kechayotgan oʻzgarishlar, xalqimizning yutuq va quvonchlari qalbimga juda yaqin. Bugun Yangi Oʻzbekistonda hududiy qarashlardan koʻra, mamlakat manfaati hamda xalq farovonligi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Samarqanddagi bunyodkorlik ham, Fargʻonadagi taraqqiyot ham, Surxondaryo yoki Qashqadaryodagi yangilanishlar ham – barchasi yagona Vatanimiz yutugʻi sifatida qabul qilinaypti.

Eng muhimi, bugun rahbar kadrlarga munosabat ham oʻzgaragan. Ularning salohiyati, bilim va fidoyiligi esa muhim mezon sifatida qaralayotir. Bu esa mamlakatimizda umummilliy tafakkur, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi hamda birdamlik ruhi tobora mustahkamlanib borayotganidan

yaqqol dalolat beradi.

Shu maʼnoda, Samarqandda kechayotgan yuksalishlarni koʻrib, bevosita Qoraqalpogʻistondagi oʻzgarishlarni ham yodga olaman. Ayniqsa, Moʻynoqda amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari Yangi Oʻzbekiston siyosatining amaliy natijasidir. Bir paytlar ekologik halokat ramzi sifatida qaralgan hududda bugun yangi hayot boshlandi. Zamonaviy uy-joylar, taʼlim muassasalari, madaniy obyektlar, turizm infratuzilmasi, ekologik loyihalar barpo etilayotir.

Moʻynoq bugun nafaqat ekologik fojia haqida gapiriladigan hudud, balki inson matonati, sabri va qayta tiklanish ramziga aylanmoqda. Bu yerda yaratilayotgan sharoitlar odamlarning ertangi kunga ishonchini mustahkamlayapti. Yoshlar taʼlim olishi, kasb egallashi, zamonaviy texnologiyalarni oʻrganishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani oʻz samalarini bermoqda.

Darvoqe, mamlakatimiz taraqqiyotining muhim jihatlariidan yana biri – muammolarga ilmiy yechim berish tizimi shakllanayotgani bilan bogʻliq. Ilgari koʻp masalalar vaqtinchalik yoki maʼmuriy usulda hal etilgan boʻlsa, hozir ilm-fan, innovatsiya va tahlilga tayangan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etyapti. Ekologiya, suv tanqisligi, energetika, qishloq xoʻjaligi, taʼlim sifati kabi dolzarb masalalar boʻyicha ilmiy tadqiqotlar hamda amaliy innovatsiyalar davlat siyosatining muhim qismiga aylandi.

Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasidagi ishlar Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining muhim belgisidir. Raqamlashtirish, sunʼiy intellekt, innovatsion platformalar, elektron boshqaruv tizimlari bugun hayotimizning barcha sohalariga kirib kelmokda. Oliy taʼlim tizimida ham raqamli universitetlar, onlayn taʼlim, zamonaviy laboratoriyalar va innovatsion markazlar tashkil etilayotgani kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam poydevordir.

Millat kelajagini belgilaydigan strategik soha

Davlatimiz rahbari taʼlim sohasiga alohida eʼtibor qaratayotgani ham maqoladagi maʼnaviy ruh bilan uygʻun. Bugun mamlakatimizda ustoz qadri yuksalmoqda. Oʻqituvchi va professorlar mehnatiga hurmat davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Yangi universitetlar ochilmokda, xorijiy oliygohlar bilan hamkorlik kengaymoqda, yoshlarning ilm olishi uchun ulkan imkoniyatlar yaratilaypti.

Taʼlimni faqat iqtisodiy taraqqiyot emas, millat kelajagini belgilaydigan strategik



sohalardan biri sifatida koʻrilayotgani har bir islohotda namoyon boʻlayotir. Chunki ilmi, mustaqil fikrlaydigan, maʼnaviy yetuk avlod – mamlakatning eng katta boyligi.

Yangi Oʻzbekistonda kechayotgan maʼnaviy uygʻonishning eng muhim jihati shundaki, odamlar mamlakat yutuqlaridan, millat hamda Vatan zafarlaridan samimiy quvonayotir. Ilgari befarqlik kayfiyati kuchli boʻlgan boʻlsa, bugun xalqimiz mamlakat obroʻsi, xalqaro maydondagi nufuzi, yoshlar yutuqlari, ilm-fan hamda sportdagi gʻalabalarni oʻzining shaxsiy yutugʻidek qabul qilayotir. Bu Vatanga daxldorlik hissi tobora yuksalib borayotganidan dalolat, bu – millat ruhiyati oʻzgarayotganining belgisi. Inson oʻz Vatani bilan faxrlansa, uning kelajagiga ishonsa, jamiyatda ulkan kuch paydo boʻladi. “Millat shavkati” maqolasining eng katta qimmatini ham ana shunda – u odamlarda milliy gʻurur, daxldorlik hamda maʼnaviy masʼuliyat tuygʻusini uygʻotadi.

Yuraklarni silkitadigan ushbu chuqur tahlilga ega maqola faqat Samarqand haqidagi esse emas. Bu – Yangi Oʻzbekistonning maʼnaviy portreti, xalq bilan yashaydigan davlatchilik falsafasi, inson qadrini ulugʻlash gʻoyasi hamda millatning ichki qudrati haqidagi teran mushohadadir.

Shu maʼnoda, Q. Rafiqovning maqolasi oliy taʼlim va ilm-fan sohasi xodimlari uchun nafaqat tahliliy chiqish, balki “yoʻl xaritasi” sifatida foydalanish foydadan xoli emas, albatta. Maqolani har bir oliy taʼlim muassasasi rektoridan tortib, professor va talabalarigacha chuqur mushohada bilan oʻqishi kerak. Chunki unda millatning kechagi kundidagi achchiq saboqlar va bugungi kundagi buyuk maqsadlar – “Uchinchi Renessans”ga boʻlgan ishtiyok koʻzga yaqqol tashlanadi. Biz, oliy taʼlim tizimidagilar, ushbu maqolada ilgari surilgan gʻoyalarni amalga oshirishda, bilimni, maʼrifatni va Vatan ravnaqi, shavkati uchun jon kuydiradigan yangi avlodni tarbiyalashda kamarbasta boʻlamiz.

Qoʻngʻirotbogʻ SHARIPOV,
Oʻzbekiston Respublikasi
oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar
vaziri.

Insonparvarlik

HAYIT ARAFASIDA
BEGʻARAZ YORDAM

Insonparvarlik, bagʻrikenglik va qoʻllab-quvvatlash xalqimizga xos fazilatlardan hisoblanadi. Oʻzaro doʻstlik ramzi sifatida muborak Qurbon hayiti munosabati bilan hamda Afgʻonistonning sel-suv toshqinlaridan jabr koʻrgan aholisiga koʻmak berish maqsadida 200 tonnaga yaqin oziq-ovqat mahsulotlari ortilgan navbatdagi insonparvarlik yordami yuklari Balx viloyatiga yetkazib berildi.



Begʻaraz insonparvarlik yuklari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Afgʻoniston boʻyicha maxsus vakili Ismatilla Irgashev, Surxondaryo viloyati hokimi Ulugʻbek Qosimov, Balx viloyati gubernatorining oʻrinbosari Nurulhodi Abuidris va ikki tomon rasmiylari

ishtirokida qoʻshni mamlakatning Hayraton shahridagi “Astras” kompaniyasi hududida topshirildi.

Taʼkidlash joizki, insonparvarlik yordami tarkibidan kundalik ehtiyoj uchun zarur un, guruch, shakar, makaron, qandolat mahsulotlari, oʻsimlik yogʻi, noʻxat, tez tayyorlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari oʻrin olgan.

Afgʻoniston rasmiylari Oʻzbekiston Prezidenti va xalqiga koʻrsatayotgan insonparvarlik yordami uchun chuqur minnatdorlik bildirib, bayram munosabati bilan samimiy tabriklarini yoʻllashdi.

Farhod ESONOV
(“Xalq soʻzi”).

EKSPORTBOP GILOS

Quva tumanining 70 gektar adirlklarida barpo etilgan “Jannat bogʻi” bogʻdorchilik fermer xoʻjaligida Ozarbayjondan keltirilgan gilos navi moʻl hosil bermoqda. Eʼtiborli jihati, bogʻda toʻliq suv tejoyvchi texnologiyalar joriy etilgan boʻlib, meva organik usulda – kimyoviy vositalarsiz yetishtirilmoqda. Shu bois terib olinayotgan gilos toʻliq eksportga yoʻnaltirilgan.

Toʻkinlik

– Mazkur navning ilmiy tilda oʻz nomi bor, – deydi bogʻbon Odiljon Mirzaqosimov. – Ammo biz uni “Ozarbayjon goʻzali” deb atadik. Bogʻimiz ham ikki qardosh xalq doʻstligi kabi yil sayin gurkurab rivojlanmoqda.

Fermer xoʻjaligi rahbari Raimjon Yusupovning taʼkidlashicha, ilgʻor agroteknologiyalar va ilmiy yondashuv xarajatlarni qisqartirib, daromadni oshirishda muhim omil boʻlmoqda. Mutaxassislar tahlillariga koʻra, ushbu gilos navining har bir tupidan 50 kilogrammgacha hosil olish mumkin. Joriy mavsumda esa uning bir kilosi ulgurji bozorda 60 mingdan 100 ming soʻmgacha sotildi.

Ayni paytda Quva tumanida 6,5 ming gektar mevazorlar mavjud boʻlib, shundan 1,2 ming gektari intensiv bogʻlardan iborat. Yil boshidan buyon tumandagi 38 ta eksportchi



korxona tomonidan 11 davlatga qariyb 8 million dollarlik gilos va oʻrik eksport qilindi.

– Bu yil Janubiy Koreyaga gilos eksporti hajmi yanada oshdi. Shu bilan birga, AQSH va Yaponiya bozorlari ham oʻzlashtirilmoqda, – deydi Quva tumani Oʻsimliklar karantini va himoyasi boʻlimi mutaxassisi Pahlavon Qodirov. – Hozirda karantin inspektorlari fermerlar hamda eksportchilar bilan hamkorlikda mevanı saralash, qadoqlash va eksportga tayyorlash jarayonlarini xalqaro talablar asosida tashkil etmoqda.

Botir MADIYOROV
(“Xalq soʻzi”).

YUKSAK ISHONCHGA MUNOSIB AVLOD

Joriy oʻquv yili yakunida maktablarning 11-sinfini 472 ming, 9-sinfini esa 621 mingdan oshiq oʻquvchilar tugatdi. Ularning orasida ilk bor 11 ming nafardan ziyod oʻgil-qizlar maktabni oltin va kumush medallar bilan tamomladi. Bitiruvchilarni hayotning yangi va hal qiluvchi bosqichi – kasb va universitet tanlash pallasida hozirgi kunda 207 ta oliy oʻquv yurti va 643 ta texnikum oʻz safiga chorlamokda.

Tadbirkorlikni xohlovchi yoshlarimiz uchun banklar 25 trillion soʻm imtiyozli kreditlar ajratishni rejalashtirgan. Startap loyihalarini boshlagan bitiruvchilar uchun 100 million dollarlik mablagʻ ham yoʻnaltirilgan. Yirik IT kompaniyalar esa har yili kamida 50 ming nafar yoshni sunʼiy intellekt boʻyicha oʻqitib, yuqori daromadli ish bilan taʼminlashga tayyor.

Qayd etish lozim, yurtimizdagi barcha umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida tashkillashtirilgan “Soʻnggi qoʻngʻiroq” tadbirlari koʻtarinki ruhda boʻlib oʻtdi.

Jumladan, poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 126-maktabda ham ushbu sanaga alohida tayyorgarlik koʻrildi. Taʼlim muassasasi bayramona bezatilib, bitiruvchi yoshlarga unutilmas va goʻzal lahzalarni bagʻishlash uchun barcha imkoniyatlar ishga solindi.

Pedagoglar, oʻquvchilar, ularning ota-onalari va keng jamoatchilik vakillari jam boʻlgan tadbir avvalida davlatimiz madhiyasi yangrab, bitiruvchilarga

davlatimiz yetakchisining mamlakatimiz umumtaʼlim maktablari bitiruvchilariga yoʻllagan bayram tabrigi oʻqib eshittirildi.

Shundan soʻng masʼullar ishtirokida bitiruvchi oʻquvchilarga tantanali tarzda oltin va kumush medallar topshirildi hamda ularning kelgusi faoliyatiga omadlar tilandi. Shuningdek, yil davomida namunali xulqi va aʼlo baholarga oʻqigan bitiruvchilar munosib ragʻbatlantirilib, farzand tarbiyasida jonbozlik koʻrsatgan ota-onalarga “Eng faol ota”, “Jonkuyar ona”, “Masʼuliyatli ota-ona” nominatsiyalari boʻyicha “Minnatdorlik xat”lari topshirildi.

– Joriy oʻquv yilida maktabimizda 1918 nafar oʻquvchi tahsil oldi, – deydi maktab direktori Muyassar Bahromova. – Bu yil 11-sinfni 134 nafar, 9-sinfni esa 163 nafar oʻquvchi bitirmokda. Quvonarlisi, ularning orasida allaqachon xorij va yurtimiz oliy oʻquv yurtlariga kirgan oʻgil-qizlar ham bor. Bilasizmi, odam qachon oʻz ishidan mamnun boʻladi? Albatta, qilgan mehnatlari zoye ketmaganini bilganida. Hamkasblarim bilan bugun juda baxtiyormiz, chunki voyaga yetkazgan va taʼlim-tarbiya bergan yoshlarimiz katta orzular ilet uchirma qushdek bagʻrimizdan ketmoqda. Ishonamizki, ularning barchasi yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qoʻshadigan insonlar boʻlib kamol topadi.

Bitiruvchilar tomonidan namoyish etilgan badiiy dastur, oʻquvchilarning ona yurt, maktab, ustozlar va yoshlik haqida oʻqigan sheʼrlari davraga oʻzgacha ruh bagʻishladi.



Guliston tumani ixtisoslashtirilgan maktab-internatini bitirayotgan oʻquvchilarning yutuqlarini eʼtirof etmay iloji yoʻq. Buni qarangiki, joriy yil maktabning 35 nafar bitiruvchisi ham milliy va xalqaro sertifikatlar orqali yuqori ball olib, muddatidan oldin talabalikka erishdi. Buning hayajonlari va zavqu shavqini ana shunday oʻquvchilardan biri boʻlgan Sevinch Qulboyeva soʻzlab berdi:

– Biz yoshlarning har jihatdan yetuk boʻlib voyaga yetishimiz uchun yurtimizda barcha imkoniyatlar, sharoitlar yaratilgan. Oʻzim oʻqigan Guliston tumani ixtisoslashtirilgan maktab-internati bunga yorqin misol. Ayni shu maktabdagi zamonaviy taʼlim tizimi va sharoitlari tufayli Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan beriladigan sertifikatlariga toʻliq ega boʻlib, eng yuqori – 189 ball

toʻplab muddatidan oldin oliy taʼlim muassasasiga qabul qilindim. Umuman maktabimizning barcha bitiruvchilari muddatidan oldin talabalikni naqd qilishdi. Prezidentimiz, ustozlarimiz biz, bitiruvchi yoshlarga bildirgan yuksak ishonchni oqlashga, kelajakda oʻzim tanlagan sohaning yetuk mutaxassisi boʻlishga astoydil harakat qilaman.

Aminmizki, maktab bilan xayrlashayotgan barcha yoshlarimiz Yangi Oʻzbekistonning bilimli, tashabbuskor va fidoyi avlodi sifatida yurt ravnaqi uchun xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari taʼbiri bilan aytganda, “Bugungi bitiruvchi – ertangi muhandis, shifokor, olim, shoir va adib, tadbirkor degani. Bugungi bitiruvchi – Uchinchi Renessans bunyodkori degani. Sizlar Yangi Oʻzbekistonning eng katta ishonchi va tayanchisizi!”

Rahmatjon BOBOJONOV
(“Xalq soʻzi”).

YUNUS RAJABIIY NOMIDAGI OʻZBEK MILLIY MUSIQA SANʼATI INSTITUTI
Quyidagi kafedralar boʻyicha lavozimlarga tanlov eʼlon qiladi:

1. Oʻzbek maqom tarixi va nazariyasi kafedrası — professor (1 ta);
2. Maqom cholgʻu ijrochiligi kafedrası — professor (1 ta);
3. Doston ijrochiligi kafedrası — kafedra mudiri (1 ta), dotsent (1 ta);
4. Kompozitorlik, bastakorlik va umumiy fortepiano kafedrası — katta oʻqituvchi (2 ta);
5. Vokal cholgʻu pedagoglari tayyorlash kafedrası — dotsent (1 ta), katta oʻqituvchi (1 ta).

Tanlovda ishtirok etish uchun daʼvogarlar quyidagi hujjatlarni taqdim qilishlari lozim:
1. Rektor nomiga ariza;
2. Xodimning maʼlumotnomasi (obyektivka);
3. Pasport yoki ID karta nusxasi;
4. Oliy maʼlumot, ilmiy daraja, ilmiy unvon haqidagi diplom va attestatlarining nusxasi;
5. Oʻquv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari roʻyxati;
6. Mutaxassislik boʻyicha oxirgi uch oʻquv yilida malaka oshirganligi toʻgʻrisidagi guvohnoma va sertifikatlar nusxasi.

Arizalar eʼlon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida Yunus Rajabiy nomidagi Oʻzbek milliy musiqasaniʼti institutining Xodimlar boʻlimi tomonidan qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Mustaqillik shohkoʻchasi, 31-uy, Yunus Rajabiy nomidagi Oʻzbek milliy musiqasaniʼti instituti.

Murojaat uchun telefonlar:
71-237-35-75, 90-248-41-06.

Mushohada

MA'NAVIY YUKSALISH YO'LI

Mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, yosh avlodni bilimli, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan shaxslar etib tarbiyalash yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida bir ezgu g'oya mujassam: *ilmi jamiyat – kuchli davlat poydevoridir. Shu ma'noda so'nggi yillarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, mutolaani keng ommalashtirish, ayniqsa, yoshlar qalbidagi kitobga muhabbat uyg'otish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.*

Xalqimiz azaldan kitobni ma'rifat chirog'i, ilmi esa insonni kamolotga yetaklovchi eng ulug' ne'mat deb bilgan. Buyuk ajdodlarimiz hayotiga nazar tashlasak, ularning har biri kitob va ilmg'a bo'lgan beqiyos muhabbat bilan yuksak maqomga erishganiga guvoh bo'lamiz. Imom Buxoriy hazratlari butun umrini hadis ilimga bag'ishlab, minglab rivoyatlarni saralab, insoniyat ma'naviy xazinasiga bebaho meros qoldirdi. Ahmad Farg'oni, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi zotlarning hayoti ham izlanish, tafakkur va ma'rifat bilan chambarchas bog'liqdir. Ular uchun kitob shunchaki bilim manbai emas, balki millatni uyg'otuvchi, inson qalbini nurlantiruvchi qudratli vosita bo'lgan.

Bugun ana shu azaliy an'ana Yangi O'zbekistonda alohida mazmun va amaliy natijalar bilan boyimoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan muhim tashabbuslar doirasida yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib etish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha belgilangan vazifalarda kitobxonlik va mutolaa madaniyati muhim yo'nalishlardan biri sifatida ko'rsatilgan.

Bu borada qabul qilinayotgan qarorlar, milliy dasturlar va keng qamrovli loyihalar jamiyatimizda kitob o'qishni ommaviy harakatga aylantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2026 yil 15 yanvarda qabul qilingan "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Uzun muvofiq, Yoshlar ishlari agentligi huzurida Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilishi belgilandi.

E'tiborlisi, bugun kitobxonlikni rag'batlantirish faqat targ'ibot yoki chiqarib kitob cheklanib qolmayapti. Ilmga, mutolaaga, zehn va tafakkurga intilayotgan yoshlar moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda. "Yosh kitobxon" tanlovi, "Yosh kitobxon oila", "Mushoira", "Zakovat" kabi loyihalar yig'it-qizlar qalbidagi bilimga ishtiyoq uyg'otib, ularni kitob bilan do'stlashtirmoqda. Bu tanlovlar g'oliblariga avtomobillar, yirik pul mukofotlari va boshqa qimmatbaho sovinrlar topshirilayotgani esa kitobxon yoshlarga berilayotgan yuksak e'tiborning amaliy ifodasidir. Masalan, "Yosh kitobxon" tanlovida g'oliblar Prezident sovg'asi – avtomobil hamda pul mukofotlari bilan taqdirlanishi belgilangan.

Yaqin kunlarda mamlakatimizda kitobxonlik harakati yanada keng miqyos kasb etdi. Davlatimiz rahbari tomonidan Milliy kitobxonlik harakatiga start berilgani bu yo'nalishdagi ishlarga yangi sur'at bag'ishladi. Ushbu tashabbus doirasida umumta'lim maktablarining 1-sinfidan 11-sinfigacha bo'lgan o'quvchilar ishtirok etishi, tanlovning final bosqichi har yili Prezident darajasida o'tkazilishi, umumiy yillik mukofot jamg'armasi 240 ming dollarni tashkil etishi, bosh sovrin sohibi esa 50 ming dollar bilan taqdirlanishi ma'lum qilindi. Bu mamlakatimiz tarixida kitobxonlik sohasidagi eng salmoqli mukofotlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mazkur tashabbusning ilgari surilishi xalqaro hamkorlik bilan ham uyg'un kechayotgani e'tiborga molik. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2026 yil 22 may kuni Birlashgan Arab Amirliklari Hukumati ishlari bo'yicha vaziri Muhammad bin Abdulloh al-Gargaviy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Uchrashuvda O'zbekiston va BAA o'rtasidagi do'stlik hamda strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlanish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, ilg'or tajribalarni joriy etish masalalari muhokama qilindi. Ayni shu kunlarda O'zbekistonda Milliy kitobxonlik harakatiga start berilib, unda jahonda keng tanilgan "Arab kitobxonlik tanlovi" tajribasi ham e'tiborga olingani qayd etildi.

Bu, albatta, bejiz emas. Chunki bugun dunyoda taraqqiyotni ilm, innovatsiya, yuksak tafakkur va ma'naviyat belgilamoqda. Kitob o'qigan avlod fikrlaydi, tahlil qiladi, yangilik yaratadi, o'z yurti taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydi. Shu bois kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan har bir tashabbus, har bir tanlov, ochilayotgan har bir kutubxona, chop etilayotgan har bir yangi nashr – mamlakat kelajagiga qo'yilayotgan ma'naviy sarmoyadir.

Bugun yurtimizda kitobxon yoshlar uchun katta mukofotlar ta'sis etilayotgani, Prezident darajasida ularning bilimi va salohiyati e'tirof qilinayotgani jamiyatimizga muhim bir haqiqatni anglatmoqda: Yangi O'zbekistonda ilm qadrlanadi, kitobxon yoshlar qo'llab-quvvatlanadi, ma'rifat esa milliy taraqqiyotning eng muhim mezonini sifatida ulug'lanadi.

Zero, kitobga qaytgan jamiyat – o'z ildiziga, o'z ma'naviy qudratiga, o'z kelajagiga qaytgan jamiyatdir. Xalqimiz asrlar davomida kitobni aziz bilgan, allomalar yetishtirgan, ilm bilan dunyoga tanilgan. Bugun esa ana shu buyuk an'ana davlat siyosati, zamonaviy loyihalar, xalqaro hamkorlik va yoshlar orzusi bilan uyg'unlashib, yangi ma'rifiy harakatga aylanmoqda. Bu harakatning maqsadi aniq – kitobxon millat, bilimli avlod va ma'rifatlil kelajakni barpo etish.

Rustam JABBOROV
(«Xalq so'zi»).



O'rta Chirchiq tumani hokimligi zali gavjum. Prokuratura vakillari ozgina ma'ruzadan keyin zaldagilarga jami 3 million so'mlik kitob ulashib chiqishdi. Ko'pchilik hayron. Bu yerdagi anjumanda jinoyatchilikka qarshi kurash haqida so'z ketsa kerak deb o'ylashibdi. Qo'llariga kitob tutgan insonlar bunday e'tibordan mamnun bo'lib, yuz-ko'zlarida minnatdorlik hislari aks etdi, yig'ilish tugadi. Hamma yoqimli kayfiyatda tarqaldi. Endi ular uyulariga borganandagi manzarani tasavvur qiling. Ota uyiga kitob olib keladi. Uy bekasi hayron, xo'jayini asabiylashmagan, xursand kirib keldi. Bolalar dadasi olib kelgan kitobni ajablanib qo'lga oladi. "Rahmat, dadajonisi, bugun birinchi marta sizdan kitob olishimiz" – bu minnatdorlik so'zlari otani yanada xursand qildi. Oiladagi yaxshi kayfiyatga bitta narsa sabab – u kitob! Shu kitob tufayli xonadonga ma'naviyat kirib kelyapti. Ma'naviyat bor joyda hayot mazmuni, ma'nosi bor.

"O'tkir zehnlilar mushoirasi"da bilim va malakani namoyon etish uchun teshga tegmagan, kutilmagan savollar beriladi. Bu savollarga qo'yilmaqom qilib javob beruvchi yoshlar uchrab turadi. Agar unday bilimdonlardan "Aniq javobni qayqodan bilasiz?" deb so'rasangiz, albatta kitoblarni o'qish orqali xabardor bo'lganini aytishadi.

Kitob o'qishda ham o'qish bor, javonda terilib turgan kitoblarni ketma-ket sharillatib o'qish ham mumkin. Lekin janri, yo'nalishi bo'yicha turfa xil kitob bor. Shunday kitoblar mavjudki, ularni bafurja, shoshmasdan, har bir jumla yoki xatboshining mag'zini chaqib, mushohada qilib o'qish kerak. "Gapni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga" degan hikmat shu o'rinda to'g'ri keladi.

Shu o'rinda Nikolay Chernishevskiyning ushbu aytimini eslang: "Barcha yaxshi kitoblarning, ayniqsa, bitta o'xshashligi borki, ular so'zsi kitobxonlarda kishilar uchun nima adolatl, go'zal va foydali ekanligi haqida bosh qotirish istagini uyg'otadi".

Ekspertlarning aytishicha, dunyo bo'yicha eng ko'p tirajida kitobi tarqagan yozuvchilar ichida Uilyam Shekspir 1-o'rinda, Lev Tolstoy 2-o'rinda, Chingiz Aytmatov 3-o'rinda turishar ekan. Bu shohsupada o'rinlar almashishi mumkinmi? Mumkin deyishyapti. Shekspir kitobi 200-yil mobaynida, Tolstoy 100-yil mobaynida, Aytmatov 50 yil mobaynida chop etilmoqda. Birgina 2018-yilda Chingiz Aytmatovning 90 yilligi munosabati bilan juda ko'p nusxada kitoblari nashr etildi. Yana 50 yil ichida bu adib asarlari geometrik sur'atda ko'payishi turgan gap. Chingiz Aytmatov haqida ta'rifni eshitqanmisiz? "Turkiy tili iste'dodlar ichida Alisher Navoiydan keyin turuvchi adib Chingiz Aytmatovdir".

Dunyo miqyosida eng ko'p nusxada tarqagan kitoblardan biri J. Roulingning Garri Potter qahramoni bo'lgan turkum asarlari ekanini yaxshi bilasiz. Albatta, bu yorug' olamda ingliz tilida o'quvchilar ko'p bo'lishi mumkin. Lekin O'zbekistonda Garri Potterdan ko'p ommabop, tez tarqaydigan kitoblar borligini ba'zan o'ylab o'tirmaymiz. Aslida Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" kitoblaridagi Hoshimjon har qanday Garri Potterni bir qo' chiqsda qochirishi mumkin.

Toshkentning Mustaqillik shohko'chasidagi "Kitoblar olami" majmuasida bo'lganmisiz? Keyingi uch-to'rt yildan buyon bu dargoh poytaxtimizning o'ziga xos brendiga aylandi. "Kitoblar olami" yurtimizga kelgan turlarining sayyohlik yo'nalishiga kiritilgan. Darhaqiqat, ushbu manzilga kelgan mehmon Toshkent haqida, O'zbekiston haqida taassurot oladi. Axir kitoblar – millat ko'zgusi. Ularda ziyoli mualliflarning o'y-andishasi, tafakkuri mujassam. Bizning xorijdan kelgan sayyohlarga g'urur bilan ko'rsatadigan joylarimizdan biri "Kitoblar olami" kabi zamonaviy muassasalarimizdir. Bu yerda faqat kitob sotilmaydi. Ushbu maskanda o'sha kitobning mualliflari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. Bunday tadbirni jurnalistlardan biri "Kitobning jonli ijrosi" deb atadi. Shunday anjumanlardan birida besh yashar bolakay Navoiyning mashhur g'azalini yoddan o'qigandi, shu bolaga kitob sovg'a qilishganida hamma xursand kayfiyatda olqishlaganini ko'rganingizda edi.

Bolaligimizda o'qigan bitiklar ongimizda umrbod muhrlanib qolgan. Shulardan biri yozuvchi Maksim Gorkiyning ushbu so'zlari: "Alyosha, agar puling juda ko'p bo'lsa, nima xarid qilgan bo'larding?" degan savolga yosh

KITOB KELAJAKKA CHORLAYDI

Aleksey "Pulim ko'p bo'lsa, kitob sotib olgan bo'lardim" deb javob qilgan. Keyinchalik bu yozuvchi "O'zimdagi barcha yaxshi xislatlar uchun kitobdan minnatdorman" deb yozgan edi. Nurobodlik mehnat faxriysi Bobomurod Mahmudov hikoya qiladi: "O'rtao'z qishlog'idan Nishon buva ming oyning yuzini ko'rganiga osh berdi. Nima sovg'a olsam ekan, deb o'ylandim. Oxiri Maxtumquli she'rleri bitilgan to'plamni olib bordim. To'yga sovg'a-salomlar ko'p tushdi. Farzandlaridan birining aytishicha, to'ydan keyin barcha sovg'alar joy-joyini topib ketibdi. Faqatgina bitta kitob qolibdi. Otaxon kunda, kun ora o'sha kitobdan bir necha varag'ini olib mutolaa qilarmish. Vaqti-soati kelib oqsoqol olamdan o'tibdi. "Hozir ham siz sovg'a qilgan kitobni qo'lga olganimizda otamni, u kishi qatorida sizni ham yodga olamiz" deydi. Qarang, oddiy bir kitob qanchadan-qancha qalblarga nur ato etyapti".

Gruzinlarda yangi turmush qurayotgan oilaga Shota Rustavelining "Yo'lbars terisiga yopingan pahlavon" kitobini sovg'a qilish an'adan buyon udum bo'lib keladi. Bizda ham yangi hayot boshida turgan yoshlarga Alisher Navoiyning o'n jildlik majmuasini hadya qilish uchrab turibdi. Shunday ajoyib udumlar hayotimizni bezayversin. Qo'lga kitob ushlagan inson ko'nglida faqat ezgulik jo'sh uradi. Kitob tutgan zotga yovuz hislar begona bo'ladi.

Kitob o'qigan inson hayotning har qanday murakkabligi oldida qanday harakat qilishni yaxshi biladi. Aqli inson chigal vaziyatlardan qanday chiqishni biladi. Dono esa o'shanday vaziyatga tushmaydi. Dono bo'lishning yagona yo'lga kitob o'qish orqali erishish mumkin.

Kitob insonni ilhomlantiradi, unga qanot baxsh etadi. Ayni paytda o'zligini anglashga imkon yaratadi. O'zligini anglab yetgan odam ko'p narsalarga qodir.

Mutolaa halovati

Yashirishning keragi yo'q, kitobga mehr qo'yishda G'arb mamlakatlariga nisbatan orqadamiz. Shu ma'noda kitobni hayotning ajralmas qismi sifatida deb bilishni ularidan o'rgansak arziydi.

1940-yilda Glenn Domen Pensilvaniya universitetining fizioterapevt mutaxassisligini olib, birinchi qatori bolalar miyasi rivojini tadqiq etib boshladi, 1955-yilda Filadelfiyada Inson salohiyati yutuqlari institutiga asos soldi. 60-yillar boshida Institut jahonda e'tirof etilib, sog'lom bolalar rivojida muhim kashfiyotlar yaratdi. Glenn Domenning "Bolani kitob o'qishga qanday o'rgatish mumkin" degan ta'limoti dunyoda mashhur. Tadqiqotchilarning uqtirishicha, hali harf tanimagan go'daklar ham yozuvni o'qishga tashna bo'larkan. Bolakay ko'cha-ko'ya "Metro", "Koka-kola", "Megaplanet" degan yozuvlarni osongina o'qiydi.

O'timshdagi pedagoglar uzoq davr mobaynida bolalarimizni o'qish-o'rganishga muhabbat ruhida tarbiyalashimiz lozimligini qayta-qayta uqtirib kelishgan. Lekin ko'p hollarda bu ishni qanday uddalash haqida aytishmagan. Qadimgi yahudiy donishmandlari o'ta-onalarga nonni yahudiy alifbosidagi harflar shaklida tayyorlashni maslahat qilishgan va bolalarga nonni o'sha harfni o'qigandan keyin yeyishga ruxsat berishgan. So'zlarni esa saboq doskasiga asalda yozishgan. O'shanda bola harflarni o'qish asnosida lazzatli kulchalarni tanovul qilgan.

O'qish jarayoni bolaga benihoya huzur-halovat keltirishi kerak, zero, bu hayotimizdagi eng maroqli o'yindir.

Tug'ilgan go'dak hayotining dastlabki olti yilida miyasida nima qolsa, o'sha muhrlanib qoladi. Shuning uchun biz bola qabul qilayotgan axborot to'g'ri bo'lishi uchun harakat qilishimiz kerak. Yosh bolalar o'zlari tushunmagan narsani yodda saqlaganlariga ko'p bor guvoh bo'lganmiz. Yoshi katta odam oldi oy oldin yodlagan she'rini esolmasligi mumkin, bolalikdagi she'rarni so'rasangiz, darhol aytib beradi. Shuning uchun bola xotirasini bosma qog'ozga qiyoslashadi. Bir qator tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'pgina buyuk va atoqli shaxslar maktabga bormasdan oldin o'qishni o'rganishgan.

Bolalar juda norasida davrida o'qishga o'rganishi kerakligi sabablari quyidagilardir:

Ikki va uch yashar bolalarning o'ta faolligi aslida bilimga juda tashnaliklari tufaylidir. Agar bolaga ko'proq harakat qilishga, borliqni va o'zligini anglashga, bilimga tashnalikni loqal ma'lum muddatga qondirishga imkon berilsa, o'ta faollik birmuncha pasayadi va ularni kuzatish ancha osonlashadi, bolaning o'zi uchun esa o'zlikni va atrof-muhitni anglash oson kechadi.

Ikki-uch yashar bola yangi axborotni oson qabul qiladi. Keyinroq bu osonlikning imkoni bo'lmaydi.

Bu davrda bolani o'qishga o'rgatish boshqa yoshdagiga nisbatan ancha yengil kechadi.

Erta muddatda o'qishga o'rganagan bolalar boshqa bolalarga nisbatan ko'proq hajmda

axborotni hazm qiladi.

Hali go'dakligida o'qiy oladigan bolalar kechroq o'qishga o'rganagan bolalarga nisbatan, odatda, yaxshi tasavvur qilishadi. Uch yoshli bolakay kitobni ifodali, tushunib o'qishini kuzatish maroqlidir, bu har so'zini alohida o'qigan va jumlaning yaxlit holda tushunmagan yetti yashar bola bilan taqqoslaganda yaqqol bilinadi. Bu murg'ak bolalar o'qishda cho'chimaydi va murakkab vazifa sifatida qabul qilmasligi sababli ro'y beradi. Kichik yoshdagi bolalar o'qishni olamdagi yana bir hayratli narsa sifatida, hali o'rganishi kerak bo'lgan hayratli narsa kabi qabul qiladi. Ular o'qishda tutilib qolishmaydi, balki o'ta amaliy ijahdan o'qishga qiziqishadi.

Va, nihoyat, yuqorida tilga olinganlar bilan birga erta yoshdagi bolalarga o'qishga o'rganish juda yoqadi.

Biz yuqorida eslatgan Glenn Domenning "Bolani kitob o'qishga qanday o'rgatish mumkin" kitobi tarqagandan keyin undagi tavsiyalarni hayotda sinab ko'rgan o'ta-onalardan ming-minglab xatlar keladi. Bu maktublarda (muallif ularning bir qismini oxirgi nashrlardan birida e'lon qilgan) kitobga oshiq bo'lgan farzandlari fantastik natijalarga erishayotganligi haqida yozishadi. "Men ushbu kitobingizni hamma yosh oilalarga tavsiya qilaman", "Men bolalarimga ajoyib va g'aroyib dunyoni ochib berganingiz uchun katta rahmat aytmoqchi edim", "Siz tavsiya qilgan dasturni ishonib-ishonmay uch yoshli o'g'limga o'rgata boshladim. Olti oyda u ancha-muncha o'qiy boshladi. Meni bundan ham hayratga solgan holat shu bo'ldiki, uning bir yarim yoshli singilchasi birga-birga savod chiqardi. Bugun ular har qanday kitobni sharillatib o'qishadi. Sizning bu tadqiqotingiz va kitobingiz uchun katta rahmat!" Bu satrlar o'sha maktublardan olindi.

O'z farzandlari hali yetti yoshga yetmasdan kitoblarni bemalol o'qishi xat mualliflarini cheksiz hayratga soladi. Aslida kitobning chin mo'lga ekaniga hayotiy misol edi bular. Faqat kitobgina inson ma'naviy olamida shunday inqilobiy o'zgarishlar yasashi mumkin. Oq qog'ozga qora bo'yoqda bitilgan, sahifalari tartib bilan tikilgan kitob ana shunday buyuk qudratga ega.

Beminnat ustoz

Yurtimizda kitobga mehr uyg'otish yo'lidagi sa'y-harakatlar hayotimiz ko'zgusi – ommaviy axborot vositalariga yorqin aks etadi. Masalan, "Xalq so'zi" gazetasiyning bir yildagi sonlarida shu mavzuda chiqqan maqolalarning sarlavhalariga e'tibor qilyaylik. "Internetga vaqt topasiz, mutolaaga-chi?", "Ma'naviy quvvat manbai", "Bunda bulbul kitob o'qiydi", "Bolalar uchun audio ertaklar", "Boshqalariga o'xshamaydigan kitoblar uyi", "Dostonlar go'zal fazilatlarini shakllantiradi", "O'zim o'qigan maktabga – mening kitob tufham", "Kitobsiz kelajak yo'q", "Mutolaa tafakkurni boyitadi", "Kitob – qalb chirogi", "Gran-priga loyiq ko'rilgan kitob", "Kelib ketma – bilib ket". Bu sarlavhalar, qatorda quyosh aks etganidek, kitobxonlikka e'tibor qanchalik ekanligini yorqin ifoda etgan. Shuningdek, "Ishonch" gazetasida yil mobaynida "Mutolaa bor ekan, ezgulik barqarordir", "To'xtaboyevning siri", "Mutolaa zavqi", "Mutolaaga o'zgacha yondashuv", "Ma'rifatga eluvchi yo'l" sarlavhali maqolalar berilgan. "Yoshlar ovozi" gazetasi sahifalarida bir yilda shunday sarlavhali maqolalar taqdim etilgan: "Mutolaa etadi davom", "Kitob o'qimasang, dunyoga kelganing bekor", "400 ta kitob chakkli emas", "Mutolaa – yoshlar kamolotining hal qiluvchi bosqichi", "Beminnat ustoz", "Betakror saboq". Kitob ijod mahsuli ekan, ijodkorlikning rang-barang palitrasi gazetalardagi sarlavhalarda ham aks etib turibdi.

"O'zbekiston" telekanalida taniqli jurnalist Umida Usmonovaning "Imtihon" ko'rsatuvlaridan birida ikki qadron do'st o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'ladi. Bundan yig'itning otasi xabar topib, o'g'li va do'sti qadrdonligini tiklash yo'lini izlaydi. Ma'rifatlil inson donishmandlaracha yo'lini tutadi. O'g'lining do'sti xonadoniga mehmonga borib, tengdoshi – otaxon bilan diydorlashadi. Xonadon sohiblariga do'stlik qadr-qimmatini haqidagi kitobni sovg'a qiladi.

Donishmand xalqimiz har bir insonga xatti-harakati, o'zini tutishi, fe'l-atvoriga qarab lo'nda baho beradi. Aytaylik, biror yarashmagan qiliq qilgan, befarosatligini namoyon etgan odamga "Xah, o'qimagani" deb, har ishni risoladagidek bajaruvchi, didli-farosatli insonga nisbatan "O'qigan-da bu" deb baho beradi. Bu o'rinda o'sha odamning ma'lumot darajasidan ham

ko'proq kitob bilan oshno bo'lgan-bo'lmaganligi nazarda tutiladi. Agar u kitob o'qigan bo'lsa, hamisha hayotda namunali, ibratli faoliyat yuritishi anglashiladi.

Prezidentimizning kitobxonlik zarurati haqidagi talab va topshiriqlarining ma'nosi nihoyatda serqirradir. Agar xalqimiz kitobxon bo'lsa, bu noyob ne'matning yaratilish zahmatiga hurmat-e'tibor yetarli bo'ladi. Kitob orqali ma'naviy olamini boyitgan insonlar o'z hayotini ham kitoblarga monand yo'lga qo'yadi, jinoyatchilik ko'chadan ancha nari yuradi. Hayotga qo'yayotgan qadami, oila a'zolariga, yaqinlariga, yon-atrofdagilarga munosabati ham kitobga hamohang bo'ladi. Davlatimiz rahbari bog'chaga borgan bola bilan bog'chaga bormagan bola o'rtasida qancha farq bor, degan gaplari chin ma'noda hayotiydir. Birinchi sinfga bog'chada tarbiyalangan bola harf tanib, aniqrog'i, kitobni qo'lga olib keladi. Ana shu tafovut bir umrlik tarbiyada namoyon bo'ladi.

Kitobning har qanday moddiy ne'matdan ustun ekanligini Prezidentimizning quyidagi so'zlari



yaqqol ifoda etadi: "Agar siz farzandingizga dang'llama uy qurib bersangiz – vaqti soati kelib u eskirishi mumkin. Agar eng zo'r mashinani olib bersangiz – u ham tez orada eskirishi mumkin. Agar uchun moddiy boylik, pul qoldirsangiz – u ham bir kuni sarf bo'lib tugashi mumkin. Ammo dunyoda hech qachon eskirmaydigan, yo'qolmaydigan bebaho bir boylik borki, u ham bo'lsa farzandingizga bergan bilim va hunaridir. Lekin bilim va ma'rifatni qayerdan, kimdan olish mumkin. Avvalo, kitob degan xazinadan".

Yana bir o'rinda Prezidentimizning "Ertangi kunini o'ylagan, farzandlarini chin ma'noda komil insonlar etib tarbiyalashni maqsad qilgan har qanday jamiyat, avvalo, ularning o'qilga kitob beradi, ularni kitobga oshno qiladi" degan fikrlari har bir ziyolining ko'nglidagi gap.

Har yili ko'rkam faslda poytaxtimiz Toshkentda, viloyatlar markazlarida go'zal bog' va xiyobonlarda an'anaviy "Kitob bayrami" o'tkaziladi. O'shanday ajoyib tadbirlarda atrof gullardan ham ko'p narsa – kitob bilan bezaladi. O'sha lahzalarda bolajonlarimizning yuz-ko'zlaridagi quvonchga e'tibor qiling. Ayniqsa, kitob xarid qilgan o'g'il-qizlardagi mamnuniyatga nazar tashlang. Kitob inson qalbidagi ezgulik tuyg'ularini jo'sh urdiradigan haqiqiy mo'jizadir.

Ijtimoiy tarmoqda e'lon qilingan kitob o'qishning 21 foydasi haqidagi bitiklarga bir nazar tashlaylik:
mutolaa asabni tinchlantiradi;
uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi;
qalbn yumshatadi;
miya faoliyatini yaxshilaydi;
tushkunlikka qarshi kurashga yordam beradi;
insonni go'zallashtiradi;
hayotdan maqsadni anglashga va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi;
kitob o'qiydigan odamlar hayotda faol bo'lishadi;
xotirani va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi;
so'z boyligini oshiradi;
yozuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi;
chet tili o'rganishni osonlashtiradi;
tinglash qobiliyatini rivojlantiradi;
ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;
xastalikka chalinishning oldini oladi;
birgalikda kitob o'qish o'ta-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlari yaxshilaydi;
ma'naviy qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi;

kitob o'qiydigan bolalar darslarni yaxshi o'zlashtiradi;

jinoyatchilikning oldini oladi;

yaxshi hikoyaga yga aylantiradi;

yaxshilik qilishga undaydi.

O'tgan haftada davlatimiz rahbari tomonidan "Milliy kitobxonlik harakati"ga start berildi, bu tashabbus millionlab yurtdoshlarimizni kitob mutolaasiga chorlashi shubhasiz.

Shuhrat JABBOROV
(«Xalq so'zi»).

2026-yil 1-dekabrda mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan mahalla hududidagi qabristonni obodonlashtirish bo'yicha ehtiyojidan kelib chiqib Obodonlashtirish boshqarmasiga ariza kiritish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;

e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-6768

9 782010 676809

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obnani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir N. Ostonov.

Musahhili S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 02.20 Topshirildi – 02.20

1 2 3 4 5 6